

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

2-son (6-jild)

2026

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 2 (6) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2026

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Kurbanov Eldar Ermamatovich, Qormishov Mirjalol Jumamurod o'g'li</i> O'ZBEKISTONDA MILLATLARARO TOTUVLIKNI TA'MINLASHDA MILLIY MADANIY MARKAZLARINING INSTITUTSIONAL ROLI VA VAZIFASI (Sirdaryo viloyati markazlari misolida)	11-15
<i>Djurayev Ikrom Nematovich</i> SOPOLLI-KO'ZALI ARXEOLGIK QATLAMLARIDA SHIMOLIY DASHT QABILALARINING IZLARI	16-19
<i>Акбарова Камила Шухрат кизи</i> МЕЖДУ СЕКУЛЯРИЗАЦИЙ И МОДЕРНИЗАЦИЕЙ: СОВЕТСКАЯ ПОЛИТИКА В СФЕРЕ РЕЛИГИИ В УЗБЕКИСТАНЕ	20-26
<i>Olimov Islombek Ulug'bek o'g'li</i> SUV TA'MINOTI TIZIMINI RAQAMLASHTIRISH: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR.....	27-31
<i>Sitorabonu Bobojonova</i> BUXORODA DASTLABKI MUZEYNING TASHKIL TOPISHI.....	32-36
<i>O'ralov Orzubek</i> GEOGRAFIK KASHFIYOTLARGA QADAR POLINEZIYA XALQLARINING RIVOJLANISHI VA DAVLATCHILIK INSTITUTLARINING SHAKLLANISHI TARIXI.....	37-45
<i>Qahhorov Shohjaxon Shodiyor o'g'li</i> ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR MEROSINING TARIXIY VA MA'NAVIY TAHLILI.....	46-50

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Madartov Bahrom</i> TO'QIMACHILIK KORXONALARIDA O'ZARO MUNOSABATLARNI HISOBGA OLISH ASOSIDA STRATEGIK REJALASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH	51-55
<i>Xudayberdiyev Otabek Absalomovich</i> XALQARO SAVDO MUNOSABATLARIDA TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA TA'MINOT ZANJIRI VA LOGISTIKA KONTROLLINGINING ROLI	56-64
<i>Ismailova Shaxnoza Uktamovna</i> O'ZBEKISTONDA INFLYATSION BOSIM OMILLARI VA ULARNING ISTE'MOL NARXLARI INDEKSIDA NAMOYON BO'LISHI.....	65-75
<i>Usmonov Maxsud Tulqin o'g'li</i> XIZMAT KO'RSATUVCHI SUBYEKTLARNING RAQOBATBARDOSHLIGINI BELGILOVCHI OMILLAR TIZIMINI ANIQLASH VA XIZMAT SIFATI QIYMAT TAKLIFI MIJOZ TAJRIBASI BREND KAPITALI HAMDA TEZKORLIK INDIKATORLARI ASOSIDA BAHOLASH	76-87

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Alimatova Nargis Abduxalilovna</i> INSON ONGINING TABIATINI O'RGANISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI	88-93
--	-------

<i>Utegenova Jamila Djolmurzayevna</i> O'ZBEKISTONDA BIOETIKANING SHAKLLANISHI VA FALSAFIY ASOSLARI	94-97
<i>Mamatqulov Rashid Pazilbekovich</i> JAMIYAT YUKSALISHIDA IJTIMOY NAZORATNING ROLI.....	98-102
<i>Shadimetov Mahmudjon Negmatjanovich</i> RUHIY KAMOLOT TUSHUNCHASINING FALSAFIY MAZMUNI VA TARIXIY ILDIZLARI .	103-108
<i>Ochilov Jamshid Abdurashidovich</i> KOSMOGEN, TEXNOGEN, ANTROPOGEN SIVILIZATSIYALAR MOHIYATINING ONTOLOGIK TALQINI	109-117
<i>Beshimov Xamidjon Sayidovich</i> KASABA UYUSHMALARI TIZIMIDA INSON QADRINI YUKSALTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	118-126
<i>Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna</i> ABU RAYHON BERUNIY ASARLARIDA FANLARNING INSON HAYOTIDAGI O'RNI MASALALARI	127-130
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Axmedov Oybek Saporbayevich</i> INGLIZ TILIDAGI SOLIQ-BOJXONA TERMINOLOGIK BIRLIKLARINI O'ZBEK TILIGA TARJIMA QILISHNING STILISTIK MUAMMOLARI.....	131-139
<i>Babadjanova Nazokat</i> OGAHIYNING SO'Z VA NUTQ MASALALARIGA OID QARASHLARINING MA'RIFIY MANBALARI	140-148
<i>Xo'jamqulov Anvar Jozilovich, Tog'ayeva Shoxnoza Elmurod qizi</i> ADABIYOTIDA "ABSURD" TUSHUNCHASI	149-153
<i>Abdullayeva Rahima Raimqul qizi</i> MEDIA YORDAMIDA IMIDJNING SHAKLLANISHI VA IJTIMOY FIKR	154-161
<i>Fozilov Arabjon Nozimjon o'g'li</i> CHET TILLARINI O'RGANISHDA SO'Z YODLASHNING AHAMIYATI	162-165
<i>Sarvinov Abdiraxmonova Davron qizi, Eshtuhtarova Bibigul Bektoshevna</i> THE SIGNIFICANCE OF STUDYING GENDER REPRESENTATION IN IDIOMS AND PHRASEOLOGICAL UNITS.....	166-171
<i>Raxmonova Dildora Mirzakarimovna</i> TAVALLO IJODIDA POETIK OBRAZ YANGILANISHINING IJTIMOY-TARIXIY VA ADABIY- ESTETIK OMILLARI.....	172-185
<i>Кодирова Зарина Баходировна</i> ХУДОЖЕСТВЕННОЕ СВОЕОБРАЗИЕ ДЕТСКОЙ ПРОЗЫ ДЭВИДА УОЛЛЬЯМСА: «DEMON DENTIST», «THE FING», «GANGSTA GRANNY».....	186-191
<i>Ismatilloev Jobir</i> "FIRDAVS UL-IQBOL"DAGI QASIDALARDA HUKMDORLAR MADHI	192-197
<i>Bozorova Nasiba</i> O'LMAS UMARBEOVNING "YOZ YOMG'IRI" QISSASIDA JINOYATNI O'RGANISHDA RETROSPEKSIYA USULI	198-203

<i>Ганиева Зухра Муратбаевна</i> ВЕРБАЛИЗАЦИЯ КОНЦЕПТА «СМЕРТЬ» В РУССКОМ ЯЗЫКЕ: КОГНИТИВНО-СЕМАНТИЧЕСКИЙ АСПЕКТ	204-212
--	---------

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich, Ro'ziboyev Asilbek</i> SUN'IY INTELLEKT QARORLARIDA ADOLATSIZLIK MUAMMOSI VA UNI BARTARAF ETISH YO'LLARI.....	213-218
<i>Bazarova Dildora Baxodirovna</i> ODIL SUDLOVNI TA'MINLASHDA "RAQAMLI SUD"	219-226
<i>Babaev Djaxxongir Ismailbekovich</i> КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ГРАЖДАНСКО-ПРАВОВОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ ДОГОВОРА ПИТЬЕВОГО ВОДОСНАБЖЕНИЯ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН: ПУТИ МОДЕРНИЗАЦИИ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА	227-229
<i>Azходжаева Роза Алтыновна</i> РОЛЬ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В РАЗВИТИИ СИСТЕМЫ ЗДРАВООХРАНЕНИЯ.....	230-235
<i>Абдужампоров Шахбоз Музаффар ўғли</i> ЭЛЕКТРОННЫЕ ДОКАЗАТЕЛЬСТВА В ДЕЛАХ О КИБЕРПРЕСТУПЛЕНИЯХ: ПРОБЛЕМЫ СБОРА, ФИКСАЦИИ И ПРАВОВОЙ ОЦЕНКИ	236-246
<i>Alijanov Ilhomjon Erkinjon o'g'li</i> PROKURATURA ORGANLARIGA QABUL QILISHDA NOMZODLARGA QO'YILGAN TALABLAR, XIZMATGA QABUL QILISH VA YOSH MUTAXASSISLAR BILAN ISHLASHGA DOIR FAOLIYATNI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI	247-253
<i>Sarsenbaeva Aynura Tenelbay qizi, Tanirbergenov Sultanbek Bazarbaevich</i> FUQAROLARNING KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ VA ERKINLIKLARIGA QARSHI JINOYATLAR HUQUQIY MOHIYATI.....	254-258
<i>Qudratillayev Jaxongir Zokirjon o'g'li</i> INTERNETDAN FOYDALANISH HUQUQINING TARKIBIY QISMI	259-265
<i>Usmonaliyev Muslimbek Qurvonaliyevich</i> SPORTCHILARNI VAQTINCHALIK IJARAGA Olish SHARTNOMASINING SPORT HUQUQIDAGI O'RNI	266-272
<i>Mamadaliyev Boburjon Bahodirjon o'g'li</i> MAHALLIY BUDJETNI TARTIBGA SOLISHDA MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI IJRO ORGANLARINING VAZIFALARINING O'ZIGA XOS JIHATLARI.....	273-278
<i>Umarova Xolisxon Nomoz qizi</i> KORPORATSIYA DIREKTORLARINING FUNKSIONAL VAZIFALARINI AMALGA OSHIRISH BILAN BOG'LIQ JAVOBGARLIGI CHEGARASI	279-286
<i>Yaqubova Guli Qosimboy qizi</i> VOYAGA YETMAGANLAR BILAN BOG'LIQ ISHLARNI FUQAROLIK SUDLARIDA KO'RISHDA PROKURORNING ISHTIROKI TUSHUNCHASI VA UNING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI	287-294
<i>Ibrohimov Azimjon</i> XO'JALIK JAMIYATLARI BOSHQARUV ORGANLARI TIZIMIDA IJRO ORGANI: ROSSIYA FEDERATSIYASI MISOLIDA	295-301

<i>Choriyeva Xupshidabonu Xuppam qizi</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING "VASIYLIK VA HOMIYLIK TO'G'RISIDA"GI QONUNINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH MUAMMOLARI.....	302-310
<i>Saidazimov Yusuf Sodiq o'g'li</i> MA'MURIY AKT. MA'MURIY AKTNING MAZMUN-MOHİYATI. GERMANIYA TAJRIBASI.....	311-316
<i>Tursunov Ilxomjon Salimovich</i> MUQADDAM SUDLANGAN SHAXSLAR TOMONIDAN SODIR ETILISHI MUMKIN BULGAN JINOIY HARAKATLARNI OLDINI OLIŞ VA MAXSUS PROFILAKTIKANI TAKOMILLASHTIRISH	317-321
<i>Xojanazarov Otabek Saydazimovich</i> OZODLIK DAN MAHRUM QILISH BILAN BOG'LIQ BO'LMAGAN JAZOLAR IJROSI USTIDAN PROKUROR NAZORATI: MILLIY VA XALQARO TAJRIBA.....	322-329
<i>Raxmedov Xurshid Ashrapxodjayevich</i> JINOYAT ISHINI QO'ZG'ATISH INSTITUTINING HUQUQIY TABIATI VA PROTSESSUAL AHAMIYATI	330-339
<i>Mansurova Xulkar Nabiyevna</i> FUQAROLIK PROTSESSINING TEZKORLIGINI TA'MINLASHDA SIRTDAN HAL QILUV QARORI CHIQRISHNING AHAMIYATI	340-349
<i>Begimova Nasiba Xudayberdievna</i> FARZANDLIKKA OLIŞ INSTITUTINING TADRIJIY RIVOJLANISHI	350-358
<i>Yo'ldoshbekov Anvar</i> NAQDSIZ HISOB-KITOB LAR VA RAQAMLI NAZORAT TIZIMLARINING HUQUQIY AHAMIYATI	359-367
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna</i> EVRISTIK TA'LIM NAZARIYASIDA TA'LIM OLUVCHINING MUSTAQIL FIKRLASH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI	368-372
<i>Shukurov Mirjalol Norpulatovich</i> YAKKAKURASHCHILARNI TEXNIK USULLARIGA O'RGATISHDA KLAS TER USLUBIDAN FOYDALAN HOLDA TAKOMILLASHTIRISH	373-377
<i>Tilyabayev Kamil Zaitjonovich</i> O'ZBEK TILINING O'RGANILISHI VA DEKOLONIZATSIYASIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR: (DE)KOLONIAL HIS-TUYG'ULAR, MILLAT VA O'Z-O'ZINI ANGLASH	378-383
<i>Xudoyberdiyev G'iyosiddin Baxtiyor o'g'li</i> SHARQ MUTAFAKKIRLARNING FALSAFIY QARASHLARI ASOSIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA VALEOLOGIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING MUHIM PEDAGOGIK OMILI SIFATIDA.....	384-388
<i>Xo'jamqulov Rasulbek Qurbon o'g'li</i> KOMPYUTER GRAFIKASI TEXNOLOGIYALARINI LOYIHA ASOSIDA O'QITISHGA INTEGRATSIYALASHNING PEDAGOGIK SAMARADORLIGI	389-393
<i>Badalov Ulug'bek Xikmatovich</i> GEOGRAFIYA FANI DARSLARIDA ONLAYN GIS TIZIMLARIDAN FOYDALANISH.....	394-398

<i>Anvarjonova Nodirakhon Nasimbek qizi</i> IS EXPLICIT GRAMMAR INSTRUCTION STILL PEDAGOGICALLY JUSTIFIED? A CRITICAL RECONSIDERATION OF ITS ROLE IN CONTEMPORARY ENGLISH LANGUAGE EDUCATION.....	399-406
<i>Imomov Fozil Shakarbek o'g'li</i> TEMPERAMENT NAZARIYASI VA INDIVIDUAL PSIXOLOGIK XUSUSIYATLAR ASOSIDA GRAFIK FAOLIYATNI TASHKIL ETISH: PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYA VA SAN'AT TERAPIYASI KONTEKSTIDA.....	407-412
<i>Курбанбаев Джавод Аминбаевич</i> КОГНИТИВНЫЕ И ЛИНГВОКУЛЬТУРНЫЕ ОСНОВЫ ЛЕКСИЧЕСКИХ ГЛОССАРИЕВ В ЯЗЫКОВОМ ОБРАЗОВАНИИ	413-417
<i>Eshnazarova Farida Jo'raqulovna</i> JAMOADA LIDERLIK VA UNING SIFATLARI (SPORT JAMOALARI MISOLIDA).....	418-421
<i>Yuldasheva Muhayyo Alimbaevna</i> AVTOMOBILLARDA TASHISH VA HARAKAT XAVFSIZLIGINI TASHKIL ETISH FANINI O'QITISHDA ZAMONAVIY TA'LIM VOSITALARINING O'RNI.....	422-429
<i>Umarov Komil, Sobirov Orif, Sultanov Rustam, Egamberdiyev Abdullo</i> YUQORI MALAKALI GANDBOLCHILAR MASHG'ULOTLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	430-435
<i>Doniyorova Gulnoza Anvar qizi, Kurbanova Gulnoz Negmatovna</i> INTERAKTIV VOSITALAR VA AXBOROT RESURSLARIDAN FOYDALANISH ORQALI KASBIY KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH METODIKASI.....	436-441
<i>Nafasov Arslon Komilovich</i> PEDAGOGIK TA'LIM KLASTERI YO'NALISHIDA TARIX O'QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH SAMARADORLIGI.....	442-447
<i>Pulatova Muxabbat Egamberdiyevna, Qalandarova Sevinch Aqiljon qizi</i> BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINING KOMMUNIKATIV SALOHIYATINI SHAKLLANTIRISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH	448-453

07.00.00-TARIX FANLARI – HISTORICAL SCIENCES**Received:** 15 January 2026**Accepted:** 2 February 2026**Published:** 14 February 2026*Article / Original Paper***THE INSTITUTIONAL ROLE AND FUNCTION OF NATIONAL CULTURAL CENTERS IN ENSURING INTERETHNIC HARMONY IN UZBEKISTAN
(Using the example of the centers of the Syrdarya region)****Kurbanov Eldar Ermamatovich**

GDPI, Head of the Department of "History"

Doctor of Philosophy in Political Sciences, Associate Professor, etc.

Qormishov Mirjalol Jumamurod o'glu

Gulistan State Pedagogical Institute

GDPI, Master

Abstract. The article attempts to analyze in detail the activities of national cultural centers and the importance of their direct actions in the socio-political processes of our country. National cultural centers in the regions, their activities and their role in public life are also highlighted. This article discusses the role of national cultural centers in preserving and developing national traditions and strengthening mutual respect and solidarity. It was noted that national cultural centers, in turn, play an important role in introducing the culture of various ethnic groups, popularizing their traditions, and introducing the younger generation to national values.

Keywords: national cultural center, interethnic harmony, universal values, Kazakh National Cultural Center, Russian National Cultural Center, Tatar-Bashkir national cultural center.

**O'ZBEKISTONDA MILLATLARARO TOTUVLIKNI TA'MINLASHDA
MILLIY MADANIY MARKAZLARNING INSTITUTSIONAL ROLI VA
VAZIFASI (Sirdaryo viloyati markazlari misolida)****Kurbanov Eldar Ermamatovich**

GDPI, "Tarix" kafedrasini mudiri

Siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori, dotsent v.b.

E-mail: eldorgdu85@gmail.com**Qormishov Mirjalol Jumamurod o'g'li**

Guliston davlat pedagogika instituti

GDPI, magistr

Annotatsiya. Maqolada milliy madaniy markazlarning faoliyati va ularning yurtimiz ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda bevosita harakatlarining ahamiyati batafsil tahlil qilib chiqishga harakat qilingan. Shuningdek, viloyatlardagi milliy madaniy markazlar, ularning faoliyati va jamoatchilik hayotidagi roli yoritilgan. Mazkur maqolada milliy-madaniy markazlar milliy an'analarning saqlanishi va rivojlanishiga hamda o'zaro hurmat va hamjihatlikni mustahkamlashdagi o'rni muhokama qilindi. Milliy madaniy markazlar, o'z navbatida, turli etnik guruhlarining madaniyatini tanitish, ularning urf-odatlarini ommalashtirish va yosh avlodni milliy qadriyatlarga mehr qo'yishga targ'ib qilishda muhim ahamiyatga ega ekanligi ta'kidlandi.

Kalit soʻzlar: milliy-madaniy markaz, millatlararo totuvlik, umuminsoniy qadriyatlar, qozoq milliy-madaniy markazi, rus milliy-madaniy markazi, tatar-boshqird milliy-madaniy markazi.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I2Y2026N01>

Kirish. Globallashuv zamonida millatlararo totuvlik, bagʻrikenglik va madaniy xilma-xillikni va oʻzaro hamjihatlikni saqlab qolish har bir davlat, har bir xalq uchun har zamondanda bugun muhim hisoblangan [1; 286–291-6.]. Oʻzbekiston Respublikasi koʻp millatli davlat boʻlib, unda turli millat va elat vakillari qonun ustuvorligi taʼminlanganligi va hayotga tatbiq etilganligi sababli ham tinch-totuv yashab, bir oila, bir mahalla aʼzosi qardosh boʻlib ketishgan. Ushbu jarayonlarni taʼminlashda milliy madaniy markazlarning oʻrni va ahamiyati beqiyosdir.

Milliy-madaniy markaz – bu Oʻzbekiston hududida yashaydigan muayyan bir millat vakillarining milliy va madaniy ehtiyojlarini qondirish maqsadida tashkil qilinadigan jamoat tashkilotidir [7]. Bu kabi markazlar oʻz faoliyatini Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va Oʻzbekiston Respublikasining jamoat tashkilotlari toʻgʻrisidagi mavjud qonunlariga asoslanib oʻz nizomini ishlab chiqishadi va faoliyat yuritishadi.

Yurtimiz oʻzining boy tarixiga ega mamlakatdir. Mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab yurtimizda istiqomat qiladigan barcha millat va elat vakillariga bir xil sharoit yaratish maqsadida doʻstlik va ahillik, tinchlik va barqarorlik muhitini taʼminlashga qaratilgan milliy-madaniy markazlar, baynalmilal jamiyatlar tuzildi. Milliy-madaniy markazlari faoliyatini Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1992-yil 13-yanvardagi qarori bilan tashkil etilgan Respublika baynalmilal madaniyat markazi muvofiqlashtiradi [7]. Respublikamiz hududida har bir viloyatning milliy-madaniy markazlari faoliyat koʻrsatmoqda. Mamlakatda yashovchi barcha millat va elatlarning tilini, madaniyatini, urf-odatlarini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratildi.

Oʻzbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov taʼkidlagandek: “biz xalqni nomi bilan emas, balki madaniyati, maʼnaviyati orqali bilamiz, tarixining tag-tomirigacha nazar tashlaymiz [6; 143–144-b.]”. Shunday ekan, har bir millat va xalqni yaratgan tarixini, ular tomonidan avloddan avlodga asrab avaylab kelayotgan urf-odatlarini hurmat qilgan holda ularga birdek hurmat koʻrsatish bir makonni bir Vatandek sevishga, qalban his qilishga zamin yaratdi, ishonchni orttiradi. Shuningdek, Sirdaryo viloyatida faoliyat yuritayotgan milliy madaniy markazlar hududda millatlararo totuvlikni mustahkamlash, milliy qadriyatlarni asrab-avaylash hamda yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda muhim rol oʻynamoqda.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Ushbu maqolani yoritishda asosan yuridik maqomga ega boʻlgan qonun hujjatlari, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti farmon va qarorlari, madaniy markazlar, baynalmilal jamiyatlar tashkil etishga doir qonun hujjatlari, millatlararo munosabatlar sohasiga doir boʻlgan internet saytlardan olingan manbalar, ilmiy izlanishlarga oid tadqiqot natijalari asos boʻlib xizmat qiladi.

Muhokama. 1992-yilda Respublikada dastlabki milliy madaniy markazlar tashkil etila boshlandi. Ularni tashkil etishdan asosiy maqsad:

- ❖ milliy madaniyat va anʼanalarni saqlash;
- ❖ millatlararo doʻstlikni mustahkamlash;
- ❖ yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashdan iborat edi.

Mamlakatimizda turli millat va elat vakillari bir tan-u bir jon boʻlib yurtimizning turli sohalarida fidokorona mehnatlari bilan shugʻullanib kelishmoqda. Kuchli fuqarolik jamiyati va

demokratik bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida faol ishtirok etishmoqda [9]. Ko'rinib turibdiki, mustaqillik tarixi qurish jarayonida turli millat vakillari uchun yetarlicha sharoit yaratilishi milliy tiklanish poydevori mustahkam va ishonchli qurish mahsuli bo'lib xizmat qilgan.

Bag'rikenglik tamoyili o'zida turli madaniyat, din, antropologik toifalarda namoyon bo'ladigan xilma-xilliklarga hurmat va ehtirom bilan yondashish degani. Shu o'rinda tadqiqotlarda "Millatlararo bag'rikenglik" va "Millatlararo munosabatlar" masalasiga ham huquqiy yondashuvlar berib o'tilgan [3; 31-b.].

Natijalar. 1992-yilda milliy madaniy markazlar soni 10 tani tashkil qilgan bo'lsa, 1995-yilda 72 taga, 2003-yilda 135 taga [7], 2024-yilga kelib esa ularning soni 156 taga [8] yetdi. Yurtimizda hozirgi kunda 136 dan [; 32-b.] ortiq millat va elat vakillari yashamoqda va ularning ko'pchiligi o'z milliy madaniy markazlariga ega hisoblanadi. Dunyoning turli davlatlari AQSh, Buyuk Britaniya, GF, Isroil, Boltiqbo'yi davlatlari, Rossiya, Tojikiston, Qozog'iston, Qirg'iziston kabi mamlakatlarda vatandoshlarimizning "xalq diplomatiyasi" asosidagi faoliyati natijasida 158 ta [4] tashkilot faoliyat yuritmoqda.

Shu maqsadda, Davlat organlari va milliy madaniy markazlar o'rtasidagi ijtimoiy sheriklikni mustahkamlash hamda mavjud taklif va muammolarni bevosita hamkorlikda hal etish yuzasidan O'zbekiston nodavlat notijorat tashkilotlari milliy assotsiatsiyasi viloyat bo'limining tajribali mutaxassislari ishtirokida davlat grantlarida ishtirok etish tartiblari va davlat tashkilotlari bilan ijtimoiy sherikchilikning ahamiyati haqida 2 marta davra suhbatlari va seminar treninglar tashkil etildi [2; 31-b.]. Bu kabi jarayonlar albatta markazlarning jamiyatdagi rolini yanada oshiradi. Respublika tojik milliy madaniy markazi O'zbekistonda 2008-yili tashkil qilingan, bugungi kunga kelib uning tarkibiy tuzilmasida Qashqadaryo, Surxondaryo, Samarqand, Namangan, Farg'ona viloyatlaridagi hududiy bo'linmalari, Buxoroda — "Oftobi So'g'diyon" tojik-fors markazi, 1990-yil Toshkentda tashkil etilgan "Oriyono" hamda Chirchiq shahridagi "So'g'diyona" markazlari faoliyat yuritib kelmoqda. Ta'kidlash joizki, O'zbekistonda 1992-yildan buyon Qozoq milliy madaniy markazi faoliyat yuritib keladi. Bugungi kunga kelib ushbu markaz tarkibida Qoraqalpog'iston Qozoq milliy madaniy markazi, Buxoro, Jizzax, Navoiy, Xorazm, Sirdaryo va Toshkent viloyatlaridagi uning bo'linmalari faoliyat olib boradi. Mazkur markaz faoliyati qozoq millatiga mansub fuqarolarning madaniy ehtiyojlarini qondirish, qozoq tilini o'rganishga ko'maklashish, qozoq xalqining an'analari va urf-odatlarini asrash, yoshlarning qozoq tilida ta'lim olishlarini ta'minlash maqsadida oliy va o'rta-maxsus ta'lim muassasalari bilan hamkorlik qilish, yosh iqtidorlarni qo'llab-quvvatlash kabi turli yo'nalishlarda olib boriladi. Mamlakatimizda yashaydigan 189 mingga yaqin turkmanlar o'z milliy madaniyatlari, tili, an'analari va urf-odatlarini asrash hamda rivojlantirish qaratilgan madaniy tadbirlarini 2001-yil 7-may kuni tashkil qilingan Respublika Turkman madaniy markazi orqali amalga oshiradi. Bugungi kunga kelib ushbu markazning tarkibiy tuzilmasi hisoblangan Qoraqalpog'iston Respublikasi Turkman madaniy markazi, Buxoro, Qashqadaryo, Surxondaryo, Toshkent viloyatlari va Toshkent shahridagi hududiy bo'linmalari faoliyat yuritib kelmoqda. Markaz va uning bo'linmalari O'zbekistonning Navro'z, Mustaqillik kuni, Konstitutsiya kuni singari umumxalq bayramlarida faol qatnashadilar Turli xalqlar, millatlarni umumiy, mushtarak maqsadlar, g'oyalargina birlashtirishi mumkin. Shuning uchun, bugungi kunda millatlararo totuvlikni jamiyat taraqqiyotini ta'minlovchi omil sifatida o'rganishga ehtiyoj katta.

O'zbekistonda milliy madaniy markazlar mustaqillik yillarida davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida shakllandi. Yangi O'zbekistonni bunyod etish jarayonida milliy-madaniy markazlar faoliyatini jonlantirish masalasi "2017-2021 yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasi", 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston — taraqqiyot strategiyasida" ustuvor yo'nalish va maqsadlarida ham aks ettirilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 19-maydagi "Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" [5] gi farmoni asosida yurtimizda istiqomat qilib kelayotgan turli millat va elat vakillari uchun **"xalq diplomatiyasi"**ni yangi davrga olib chiqdi. Ushbu farmon xorijlik vatandoshlarimiz bilan doimiy tarzda aloqalarni yo'lga qo'yishga, xorijiy mamlakatlar bilan ma'naviy-ma'rifiy, tarixiy qardoshlik aloqalarini o'rnatishda **"rivojlantiruvchi"** ko'priklar vazifasini o'taydi.

Shuningdek, Sirdaryo viloyatida ham milliy madaniy markazlar tashkil etilgan bo'lib viloyat aholisining milliy tarkibi xilma-xil va bu hududda o'zbeklar bilan bir qatorda rus, qozoq, tatar, koreys, tojik va boshqa millat vakillari yashab kelmoqda. Shu bois viloyatda milliy madaniy markazlar faoliyatiga alohida e'tibor qaratilgan. Bu viloyatda milliy madaniy markazlar asosan 1990-yillarning o'rtalaridan boshlab tashkil etila boshlangan. Ular viloyat hokimligi va respublika Baynalmilal madaniyat markazi bilan hamkorlikda faoliyat yuritib kelmoqda.

Viloyatda faoliyat yuritayotgan ayrim milliy madaniy markazlar:

- Rus milliy madaniy markazi
- Qozoq milliy madaniy markazi
- Koreys milliy madaniy markazi
- Qirg'iz milliy madaniy markazi
- Tatar-boshqird milliy madaniy markazi

Ushbu markazlar o'z faoliyatida milliy bayramlar, madaniy tadbirlar, til va adabiyot kechalari tashkil etib kelmoqda. Milliy madaniy markazlar faoliyati ko'p qirrali bo'lib, ular quyidagi asosiy yo'nalishlarda ish olib boradi:

1. Madaniy-ma'rifiy faoliyatda;

- milliy bayramlar (Navro'z, Maslenitsa, Chusok va boshqalar);
- milliy qo'shiqlar va raqs kechalari;
- ko'rgazmalar va festivallar tashkil etiladi.

Bu tadbirlar turli millat vakillarining bir-birini yaqindan tanishiga xizmat qiladi.

2. Ta'limiy faoliyatda;

- Milliy tillarni saqlab qolish maqsadida:
- ona tili to'garaklari;
- adabiyot va tarix bo'yicha ma'ruzalar;
- yoshlar uchun tarbiyaviy uchrashuvlar o'tkaziladi.

3. Ijtimoiy faoliyat;

- ijtimoiy loyihalarda ishtirok etadi;
- xayriya tadbirlarini tashkil qiladi;
- davlat va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlik qiladi.

Milliy madaniy markazlarning jamiyatdagi ahamiyati alohida o'ringa ega hisoblanadi. Jumladan, Sirdaryo viloyatidagi milliy madaniy markazlarning ahamiyati quyidagilarda namoyon bo'ladi:

Birinchidan, ular millatlararo totuvlikni mustahkamlaydi. Turli millat vakillari o'rtasida do'stlik va hamjihatlik muhitini yaratadi.

Ikkinchidan, milliy qadriyatlarni asrab-avaylaydi. Har bir millat o'z an'ana va urf-odatlarini saqlab qolish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Uchinchidan, yosh avlodni bag'rikenglik ruhida tarbiyalaydi. Bu esa kelajakda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Bugungi kunda milliy madaniy markazlar faoliyatini yanada rivojlantirish zarurati mavjud. Jumladan:

- raqamli platformalar orqali targ'ibotni kuchaytirish;
- yoshlarni faol jalb etish;
- ilmiy-amaliy konferensiyalar tashkil etish orqali rivojlantirish mumkin.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Respublikada bo'lgan kabi Sirdaryo viloyatidagi milliy madaniy markazlar millatlararo totuvlikni mustahkamlash, madaniy xilma-xillikni asrab-avaylash hamda jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ularning faoliyati turli millat vakillari o'rtasida o'zaro muloqot va hamjihatlikni rivojlantirishga xizmat qilib, davlatning bag'rikenglik siyosatini amalda ro'yobga chiqaradi.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Курбанов Э. Размеры демократии в современное время //Общество и инновации. – 2022. – Т. 3. – №. 3/С. – С. 286-291.
2. Umanskiy Y.A. O'zbekiston Respublikasi: millatlararo munosabatlarning taraqqiyoti. Ijtimoiy fikr, 1998. №1, B.31.
3. U.Musurmanov. Jamiyatda tinchlik barqarorlik muhitini rivojlanishida milliy-madaniy markazlarning o'rni // Central asian journal of academic research. Volume 2, Issue 10, Part 2 October 2024. P.31.
4. Sh.Murzayeva. O'zbekistondagi milliy madaniy markazlarning ijtimoiy-siyosiy asoslari. <https://bukhari.uz/?p=35287&lang=oz>
5. Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida <https://lex.uz/ru/docs/-3210345>
6. Karimov I. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. T.: "O'zbekiston". 1999. 7-tom. B. 143–144.
7. https://uz.wikipedia.org/wiki/Milliy-madaniy_markazlar
8. <https://aniq.uz/uz/yangiliklar/2023-yilda-respublikadagi-milliy-madaniy-markazlar-tomonidan-15000-tadan-ortiq-tadbir-utkazildi>
9. E.E.Kurbanov.POLITICALMODERNIZATIONINUZBEKISTAN:THEROLEOFDEMOCRATICTRANSFORMATIONSTHECONTEXTOFGLOBALIZATION.VOL.1NO.5(2025):CONFERENCEOFMODERNSCIENCE&PEDAGOGY

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 2 (6) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog‘lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).